



International Scientific and Practical Conference on the
topic: " Sustainable Architecture – Challenges and
Achievement of the Present and Future"

XORAZM VOHASI VA ME`MORCHILIKNI RIVOJLANISHI

Yunusov Alisher

*Doktorant, Mirzo Ulug`bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti,
Samarqand, O`zbekiston.*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xorazm vohasida me`morchilik rivojlanishining o`ziga xos xususiyatlari, turar-joy va qal'a inshootlarining arxitekturasi va rejalashtirish tamoyillari, hamda inshootlarni barpo etishda qurilish materiallari ahamiyati kabi masalalar ko`rib chiqilgan.

Kalit so`zlar. Xorazm vohasi, qadimiy aholi punktlari, istehkom tuzilmalari, ellinistik ta'sir, ustunli ayvonlar, inshootlarning me'moriy rejalashtirish tamoyillari.

Annotation. This article covers issues such as the peculiarities of the development of architecture in the Khorezm Oasis, the architecture and planning principles of residential and Fortress structures, and the importance of building materials in the construction of structures.

Keywords. Khorezm Oasis, ancient settlements, fortification structures, Hellenistic influence, columnar porches, principles of architectural planning of structures.

Аннотация. В данной статье рассматриваются такие вопросы, как особенности архитектурного развития Хорезмского оазиса, принципы архитектуры и планирования жилых и крепостных сооружений, а также Значение строительных материалов при возведении сооружений.

Ключевые слова. Принципы архитектурной планировки Хорезмского оазиса, древних поселений, укрепительных сооружений, эллинистического влияния, колонных веранд, сооружений.

O`rta Osiyo memorchiligida Xorazm me`morchiligi o`rta asrlarda anchayin ko`p o`rganilganligiga qaramasdan qadimdan rivojlangan va muhim ro`l egallab kelgan. Xorazm - Markaziy Osiyo Turon pasttekisligi Amudaryo deltasida joylashgan tarixiy va qadimiy o`lka hisoblanadi. «Xorazm» so`zi ilk bor Avestoda uchraydi, unda qadimiy Eron va Turon o`lkasi o`zining boy tabiiy geografik jarayonlari bayon etilgan.

Abu Rayxon Beruniyning yozma manbalarida Qoraqum va Qizilqum sahrolari qachonlardir baxri ummon ostida bo`lgan. O`tgan kopgina asrlar mobaynida turlicha geologik jarayon va iqlimiy o`zgarishlar oqibatida bu ummon suvlari g`arbga tomon chekingan va Xazor (Kasbiy) dengizi keyinchalik esa Orol ko`li paydo bo`ladi. O`sha davrda hozir biz bilgan Orol dengizi, Sultan Uvays tog`i ya`ni Tuyamo`yin darasigacha, Shimoliy Qoraqum, Ustyurt xududlarigacha cho`zilgan. Hozirgi Xorazm vohasi 150-170 ming yillar ilgari (katta ko`llar o`lkasi) Sho`rko`l, Go`vik, Abul, Mizon, Oqchaxon, Sariqamish va boshqa

ko'pgina ko'llardan iborat bo'lgan. Orol dengizi osti tektonik harakat va cho'kishi natijasida yuzaga kelgan.

Orolning Sirdaryo va Amudaryo suvlari bilan to'lishi eramizdan oldingi 1-mingyillikning birinchi yamida yuzaga kelgan. S.P.Tolstov yozma manbalarida keltirilishicha Kaspiy dengiz, Xorazm dengizi deb ham atalgan. Amudaryo va Orolning paydo bo'lishi O'rta Osiyodagi barcha xalqlar paydo bo'lishi bilan uzviy bog'liqdir. Markaziy Osiyoda turlicha iqlim sharoiti mavjudligi natijasida ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholining bir-biriga yaqinligi arablar kelishidan oldingi zardushtiylik va buddizim, nasroniylik va manixeylik kabi jahon din vakillari keng tarqalgan bo'lib, ularning binolari ham shu din marosimlarini hisobga olib barpo etilgan. Keng olovli uylar, buddizm ibodatxonalari, xristian cherkovlar va turli xildagi mahalliy fuqorolik ziyoratgohlari sajda qilish maskanlari sifatida xizmat qilib turlicha diniy e'tiqodlar mavjud bo'lgan [1].

Yunon tarixchisi Geradotning yozma manbalarida keltirilganki, Eron shohi Doro I Xorasmiya mamlakatini bo'ysundirish uchun daryoga katta hajmdagi to'g'on qurdirgan va buning natijasida Xorazm bir necha yillar mobaynida Eron shohiga bo'ysungan, daryo boshlanishida esa katta dengiz paydo bo'lishi natijasida daryo yo'lini o'zgartirib, katta oqmas ko'l vujudga kelgan deb yozadi. Shunday ekan tarixda Zarafshon va Sirdaryo Amudaryoning irmog'i bo'lgan degan fikr o'z tasdig'ini topadi. Yuqoridagi fikrlar, yozma manbalar va tarixiy rivoyatlardan kelib chiqdiki, qachonlardir O'rta Osiyodagi barcha daryolar Amudaryoning irmoqlari bo'lgan. Ular barchasi Pomir, Tyanshan, Oloy tog' tizmlaridan boshlangan va Kaspiy dengizga quyilgan.

Xorijiy va mahalliy olimlar o'rganishlari natijasida eramizdan oldingi davrdan ham oldin Xorazm vohasi katta okean ostida bo'lgan Abu Rayxon Beruniy buni Tanis (Tanias) deb yozgan[14]. Xorazmning O'rta Osiyodagi boshqa madaniy markazlardan ajralib turishi, mintaqaning o'ziga xos iqlim sharoiti (cho'llarning yaqinligi) aholi punktlari, shaharsozlik va uy-joy qurish shakllariga ta'sir ko'rsatdi. Sug'orish tizimiga yaqinlik aholi punktlarini tanlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega edi. Xorazm tarixida daryo oqimining o'zgarishi munosabati bilan shaharlar ko'chirilib, bosh kanallarga ega bo'lgan feodallar sug'oriladigan yerlar aholisini itoatkorlikda ushlab turishlari kam uchraydi[2].

Avestoda bu voha haqida "Ming irmoqli daryolar, ko'llar, yashil o'tloqlarga boy o'lka sifatida aytilgan. Bu Iskandardan 980 yil ilgari bo'lgan edi. Undan keyin Siyovush ibn Kaykovusning Xorazmga kelishidan, Kayxusrav va uning naslining Xorazmga podsholik qilishlaridan tarix oldilar. Shu vaqtda Kayxusrav Xorazmga ko'chib, turk podshohlari ustidan hukmronligini yurgizgan edi[14].

Butun O'rta Osiyo madaniy hayotining asosini sun'iy sug'orish tashkil etgan bo'lib, uning rivojlanishisiz o'troq hayotni amalga oshirish mumkin bo'lmas edi. Miloddan avvalgi I ming yillikning birinchi yarmida shaharlarning paydo bo'lishi sug'orma dehqonchilikni (Yerqo'rg'on, Eylatan, Afrosiyob, Ko'zali-qir) joriy etishdagi iqtisodiy siljish bilan bog'liq edi[5]. Yirik shaharlarning soni vodiylarning sug'oriladigan maydonlarining taxminiy hajmiga, qishloq xo'jaligi salohiyatiga bog'liq edi[6]. Ushbu hudud qadimgi Sharq sivilizatsiyasining forposti bo'lib xizmat qilgan, ko'chmanchi dashtning tubiga eng chuqur surilgan[7]. Sharqiy va janubi-g'arbiy qismida bu pasttekislik Qoraqum va Qizilqum, G'arbiy va shimoli – g'arbiy qismida Ustyurt, shimolda Orol dengizi bilan chegaralangan. Ushbu mintaqa alohida geografik joylashuvga ega edi. U ikkita buyuk o'rta Osiyo daryolari havzasining pastki qismida joylashgan-Oxa (Amudaryo) va Yaksart (Sirdaryo). Bu S.P.Tolstovning fikriga ko'ra, Xorazmda "Shimol va Janub, G'arb va Sharq o'rtasidagi madaniy almashinuv yo'llari kesishgan"[7]. Amudaryo dunyoning

buyuk daryolaridan biri bo'lib, Nil singari qadimgi sivilizatsiyalarning shakllanishi va rivojlanishida muhim rol o'ynagan va bu mintaqa hayotining asosi bo'lgan. Xorazm vohasi Amudaryo deltasining o'ng va chap qirg'oqlarini egallagan.

Bu vohaning iqlimi O'zbekiston hududidagi boshqa mintaqalarga nisbatan keskin kontenintal hisoblanadi, ya'ni yozi juda issiq, qishi esa nisbatan ancha sovuq bo'ladi. Hattoki kunduzgi va kechki harorat ham ancha farq qilishi bilan ajralib turadi. Hududda yilning besh oyi, maydan to sentabrgacha harorat o'rtacha hisobda 20° dan yuqori iyul oyida esa 26°-50° bo'ladi. Qish fasli esa O'zbekistonning boshqa viloyatlariga qaraganda ancha uzoqroq davom etib 31°-32° gacha sovuq harorat kuzatiladi. Yog'ingarchilik kam bo'lganligi sababli yilning ko'p qismi qurg'oqchilikda o'tadi, bu davr mobaynida havo anchayin ochiq bo'lishi kuzatiladi. Xorazm vohasi Orol dengizi va Amudaryo yaqinida bo'lishiga qaramasdan yog'ingarchiliklar kamligi sababli boshqa viloyatlardan keskin farq qiladi[3].

Markaziy Osiyo mamlakatlari o'zining yuksak madaniyati va san'atiga ega bo'lganlar[1]. O'rta Osiyo hududida qadimiy madaniyatning yaratilishiga hissa qo'shgan ko'plab etnik guruhlar va xalqlar yashab kelgan [9], aynan shu omillar tufayli O'rta Osiyo madaniy genezisida keyingi o'zgarishlar ro'y berdi, u allaqachon mahalliy, ko'chmanchi va ellinistik madaniyat asosida davom etgan va rivojlangan. Qadimgi davrlarda ko'plab me'moriy shakllar ma'lum bir zanjirni o'z ichiga olgan qat'iy belgilangan me'moriy hajmning diniy talablari bilan belgilanadigan maxsus semantik tovushga ega edi"[11] (masalan, shaharlar shakli). Agar Sharqning o'rta asr me'morchiligida islom[12] me'morlarning ichida yagona estetik jihat bo'lgan bo'lsa, unda arablar kelishidan oldin zardushtiylik va buddizm, nasroniylik va manixeyizm kabi "dunyo" dinlari Markaziy Osiyoda keng tarqalgan edi. Antik davrda shaharlar davlat chegara xududlari ma'muriy, madaniy, iqtisodiy va harbiy markaz sifatida paydo bo'lgan. O'sha davrda me'morchilikning rivoji va shakllanishi mamlakatlarning moddiy-ma'naviy kuch qudrati, texnik iqtisodiy salohiyati, geografik joylashuvi, iqlimi va tarixiy jarayonlarga bog'liq bo'lgan. Miloddan avvalgi V asrda Gerodotning "Tarix" asarida bu haqida birinchi ma'lumot berilgan. Amudaryo Nil singari qadimgi sivilizatsiyalar rivojida muhim rol o'ynagan va dunyodagi eng yirik daryolardan biri bo'lgan. Bu esa yirik irrigatsiya va qurilish ishlarini amalga oshirish imkonini beradi, chunki mamlakatning asosiy tarmog'i qishloq xo'jaligi edi. Xorazm, Buxoro, Samarqand (Darg'om), Toshkent (Salar), Farg'ona vohalarida magistral kanallar qurilishi va rekonstruksiya qilinishi, ular atrofida ko'plab shaharlarning paydo bo'lishiga yordam bergan[16].

Qadimgi davrdagi ulkan qurilish ko'lamlari faqat kuchli boshqaruv apparatiga ega bo'lgan davlat uchun mumkin bo'lgan juda katta kuch va xarajatlarni talab qilgan. Me'morchilik san'atning boshqa turlariga nisbatan ko'proq siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy omillarga bog'liq bo'lib, ular Markaziy Osiyoning qadimiy me'morchiligida o'ziga xos uslubning shakllanishiga yordam beradi, uning xususiyatlarini quyidagilarda ko'rishimiz mumkin: O'rta Osiyo tabiiy-iqlim zonalarining xilma-xilligi va buning natijasida "turli profil va mahsuldorlikka ega ko'chmanchi, yarim ko'chmanchi va dehqon xo'jaliklarining yaqinligi"[17]. O'sha davrlarda jamiyatda turli tabaqalanish va sinflar paydo bo'la boshlagan. Me'morchilik ana'nalarini va buyukligini o'zida aks ettirgan ko'pgina shaharlar xarobalari va qala'lar, katta kanallar va behisob bepoyon ekinzorlar, topilgan keng qamrovli ish qurollari o'sha davrdagi ozod dehqonlar, hunarmandlar kuchi bilan emas balki hukumronligi kuchli bo'lgan sinfga tobe bo'lgan qullarning mehnati tufayli barpo etilganligini tasdiqlab beradi. Demak, quldorlik jamiyati bo'lmaganda edi hozirgi butun dunyodagi qadimiy mahobatli binolar shu bilan bir qatorda qadimgi Xorazm qal'alari va saroylari ham bo'lmas edi.

Quldorchilik keng rivoj topgan barcha hududlarda mahobatli qurilishlar jadal rivoj topganini unutmaslik kerak, chunki bu qadimiy davrlarda rivoj topgan davlatlarning qay darajada buyuk ekanligini va kuch qudratini ham belgilab bergan[18].

Avestoda bayon etilgan voqea va hodisalar asosan katta Xorazm deb ataluvchi davlatda ro'y beradi. Bu katta davlat Parfiya, Sug'diyona va Xorazmni o'z ichiga oladi. Miloddan avvalgi I-ming yillik boshiga kelgach, O'rta Osiyoning nisbatan ancha rivojlangan xududlarida ilk davlat uyushmasi paydo bo'lgan[13]. Bunga O'rta Osiyo mintaqalarining Yevroosiyo dashtlari kamari bilan G'arbiy Osiyo, Hindiston va Uzoq Sharq kabi qadimiy sivilizatsiyalar hududlari o'rtasida joylashishi ham yordam berdi, bu esa madaniyat taraqqiyotida yorqin aks etdi. Shubhasiz, O'rta Osiyo uchun qadimiy davr bu mintaqada madaniyati va me'morchiligida bevosita o'z ifodasini topgan muhim ijtimoiy-iqtisodiy voqealar davridir. Bu jarayondan avval bronza davrining yuqori darajada rivojlangan o'troq madaniyatining asl qatlami (Oltintepa, Sopollitepa) paydo bo'lgan bo'lib, u yerda allaqachon g'isht arxitekturasini mavjud bo'lgan[19]. Ulardagi ba'zi farqlar nafaqat iqtisodiyotda, balki arxitektura ham o'z aksini topdi. Qurilishda yagona standartning mavjudligi va miloddan avvalgi IV asrda butun Xorazm davlatining birligidan dalolat beradi. Asosiy me'moriy yodgorliklar chap qirg'oq qismida joylashgan edi, chunki sug'orish uchun eng qulay sharoitlar mavjud edi, kimyoviy tarkibiga boy tuproq juda sho'rlanmagan edi[20]. Eng ko'p sug'orilgan qism qulay geografik joylashuvga ega edi, chunki u Orolbo'yi dashtlari, Kaspiy vohalari va oldingi Sharq mamlakatlari o'rtasida joylashgan bo'lib, bu me'moriy yodgorliklarda (Tupraqqal'adagi saroy) aks etgan. Ushbu hududda sug'orish inshootlari bilan bir qatorda loy binolari bo'lgan birinchi mustahkam aholi punktlari barpo etilgan[21].

Bu yerda miloddan avvalgi 1 – ming yillikning o'rtalaridan boshlab O'rta Osiyoning eng qadimgi davlatlaridan biri Xorazmiy qirolligi vujudga keldi va rivojlandi. Miloddan avvalgi yillarda ushbu hudud, Eronning tajovuzlaridan himoya qilish uchun ko'plab qal'alar (Kaparasi, Jigerbent) qurilishi bilan ajralib turadigan Ahamoniylar davlatidan mustaqil bo'lib qoladi[22]. Miloddan avvalgi I asrlarda mintaqada Kangyu tizimida muhim rol o'ynagan massaget ittifoqining boshlig'iga aylanadi. Aynan Kangyu davrida, katta magistral kanallar bilan bir qatorda, jamo kuchlari tomonidan ulkan qal'alar va aholi punktlari qurilib, bu mintaqaning iqtisodiy yuksalishidan dalolat beradi. Kangyu tizimidagi Xorazm Kushon imperiyasining tarkibiga kiradi, u shaharlarning rivojlanishi, qurilish ishlari va umuman madaniyat bilan ajralib turadi. Ushbu davrda Xorazm Kushon imperiyasining ko'plab hududlari bilan chambarchas bog'liq edi (masalan, Shimoliy va Janubiy Baqtriya, So'g'd bilan), unga ikkita qit'alararo yo'l – Buyuk Hindiston yo'li yordam beradi[23]. Qadimgi Xorazm qudratining yuksalishi, uning madaniyati va sivilizatsiyasi "O'rta Osiyoning qadimgi tarixi fenomeni"[19], III asrga to'g'ri keladi. O'rta Osiyoning barcha hududlarini qamrab olgan qullar jamiyatining inqirozi tufayli Xorazmda sug'oriladigan maydonlar kamayib boradi, sug'orish tarmoqlari ishlamay qoladi, bu esa qadimiy aholi punktlarining vayron bo'lishiga olib keladi[8].

Miloddan avvalgi IX-VIII asrlarga kelib Baqtriya va miloddan avvalgi VII-VI asrlarda Amudaryo o'rta oqimi qismidan to Orolga yaqin yerlari shimoliy g'arbiy O'zbekiston, shimoli g'arbiy Turkman hududida Xorazm nomi bilan atalgan davlatlar paydo bo'lgan. Qadimgi yozma arxeologik manbalar o'rganilish natijasida qadimgi Xorazmliklar ilm-fan va boshqa ko'plab yo'nalishlarda o'z davri uchun ancha yuqori yutuqlarga erishganlar[13]. Yuqori darajada rivojlangan moddiy madaniyatning turli ko'rinishlarida yuqori rivojlanishini nazarda tutadi. Tuproqqal'adagi saroy va shahar atrofi majmuasining zallarida aks etgan[24]. Qal'alarning vujudga kelishida va rivoj topishida sug'orma dehqonchilikka o'tish,

irrigatsiya inshootlarining qurilishi, savdo va hunarmandchilik juda muhim ro'l o'ynagan[25]. Miloddan avvalgi I ming yilliklarga kelib (temir asri) zaminda istisodiy siyosiy hayotda ko'pgina o'zgarishlar ro'y beradi, jamoa boshliqlarining o'rniga harbiylar keladi. Shu davrlardan boshlab shaharda davlat, qo'rgon va qal'alar va yirik jamoalar ko'payadi, bu jamoalar va birlashmalar natijasida dastlabki davlatlar shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda Amudaryo deltasi o'zlashtirilib, hududda bir qancha monumental binolar qurilishiga sabab bo'ladi[26]. Bronza davrida asos solingan qadimgi Xorazm me'morchiligining o'ziga xos xususiyati ushbu hududning geografik joylashuvi kabi omillar bilan bog'liq edi, siyosiy mustaqillik boshqa hududlarga nisbatan o'zgacha iqlim (namgarchilik, botqoq va sho'r yerlar), bu yanada ilg'or qurilish ko'nikmalaridan foydalanishga yordam berdi. Xorazm hududidan qadimgi Dasht yo'li va Buyuk Ipak Yo'lining shimoliy-g'arbiy tarmog'i mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan qadimiy Baqtriya va Xorazm, Sug'diyona va Xorazm savdo yo'llari orqali Hindiston va Erondan o'tadigan janubiy savdo yo'llari kesishgan, Xorazm bu yo'lining chorraxasida joylashgan bo'lib, bu hududga boshqa mamlakatlardan savdogar, hunarmandlar, olim va me'morlar tashrif buyurgan, shu bilan bir qatorda ko'pgina madaniyat, memorchilik rivojida katta omil bo'lib xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nurmukhamedova Sh. Z. Architecture Of Uzbekistan Of The Ancient Period (Style Features And Composition Laws; Pugachenkova G.A. Sculpture in Khalchayan. - M., 1971 -204 p
2. Булатова Б.А., И.И.Ноткин Архитектурные памятники Хивы- Ташкент, 1965, 16-с
3. Jabborov.Iso Tarix fanlar kandidati, O'zbSSRDav nashriyoti.-Toshkent,1961.6-b
4. Махмудов М_М_Хоразм_тарихидан_лавҳалар_27-bet
5. Абдуллаев К. Древнейшие государства на территории Узбекистана и их культурные связи с древневосточными цивилизациями // Археология Узбекистана. – Самарканд, 2011. - №1(2). – С. 41. (40-46)
6. Ставиский Б.Я. Искусство Средней Азии. Древний период, VI в. до н.э.-VIII в. н.э. – М.: «Искусство», 1974. – С. 84.
7. Ягодин В.Н. Хорезм и ранние кочевники Устюрта // Античная культура Средней Азии и Казахстана. ТД Всесоюзного научного совещания. – Ташкент, 1979. – С. 37.
8. Толстов С.П. Новые археологические открытия в Хорезме и некоторые проблемы древней истории Индии // Индия в древности. – М., 1964. - С. 135.
9. Nurmukhamedova Sh. Z. Architecture Of Uzbekistan Of The Ancient_ Period (Style Features And Composition Laws) ; Pugachenkova G.A. Fragments of Hellenistic architecture of right bank Tokharistan // Proceedings of the Academy of Sciences of Uzbek SSR. Series history, archeology, V. II. -Tashkent, 1945 - P. 65-81
10. Каримов И.А. Без исторической памяти нет будущего // Свое будущее мы строим своими руками. – Ташкент: Ўзбекистон, 1999. – С. 143.
11. Кошеленко Г.А. Синтез искусств в зодчестве Средней Азии античного периода (некоторые вводные замечания) //Сообщения Государственного Музея искусства народов Востока. – М., 1972. - Вып. VI. – С. 43.

12. Пугаченкова Г.А. К проблеме стиля и школ архитектуры феодального Востока // ОНУ, 1963. - №6. – С. 41.
13. <http://dsr.nii.ac.jp/khiva/uz/02history.html>
14. <https://ndpi.uz/uz/2020/06/10/11294/>
15. <http://www.khorezmiy.uz/uz/pages/view/443>
16. Voronina V.L. Pre-Islamic places of worship in Central Asia // Soviet archeology. - М., 1960 - №2. - Р. 55; Nurmukhamedova Sh. Z. Architecture Of Uzbekistan Of The AncientPeriod (Style Features And Composition Laws).
17. Ставиский Б.Я. Специфика исторического и культурного развития Средней Азии в III-IV вв. н.э. // Античная культура Средней Азии и Казахстана: Тез. Докл. Всесоюзного научного совещания. – Ташкент, 1979. – С. 45.
18. Engels.F Anti Dyuring,O`zDavNashr-1957-228-b.
19. Массон В.М. Археологические комплексы и культурный процесс в древней Средней Азии / Античная культура Средней Азии и Казахстана // ТД Всесоюзного научного совещания. – Ташкент, 1979. – С. 4.
20. Димо Н.А. Почвенные исследования в бассейне р. Аму-Дарьи // Ежегодник отд. Зем. Улучшений, 1934, ч. II.
21. Болелов С. К вопросу о периодизации раннего этапа истории Древнего Хорезма Transoxsiana. История и
22. Древности Южного Хорезма // Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции. – М., 1991.
23. Ртвеладзе Э.В. Великий Индийский путь // Из истории важнейших торговых путей Евразии. – СПб., 2012. – С. 185-188
24. Рапопорт Ю.А. Загородные дворцы и храмы Топрак-калы // ВДИ. – М., 1993. - №4. – С. 174.
25. https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/tarix/xorazmda-antik-qal-alarning-vujudga_kelishi.Bulatov.B.A,Notkin.I.I.Xiva.T.,1963
26. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Xorazm>